

OZODLIK UCHUN KURASH, YOXUD QULLIKNING YANGI SHAKLI

Barotova Maftuna¹

Karimov Ulug'bek²

O'zbekiston Davlat Jahon tillar Universititi

KEYWORDS

George Orwell haqida, Xorijiy yozuvchilarning fikr-mulohazalari, Napoleon va Stalin, Snowball va Trotskiy.

ABSTRACT

Ushbu maqola 1945-yil 17-avgustda George Orwell tomonidan yozilgan dunyoga mashhur "Molxona" asari haqida ma'lumot beradi. Erkinlik, tenglik, adolat; Bular insoniyat asrlar davomida orzu qilgan tushunchalar. Lekin haqiqat shuki, bu tushunchalar faqatgina tillarda, orzularda va shiorlarda bo'ladi. George Orwellning "Molxona" asari oddiy bir hayvonlar haqidagi hikoya emas, balki inqilobning yaqqol ko'rinishi va hokimiyatning insonlarni qanday buzishini ko'rsatadigan kuchli bir allegoriyadir.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15367619**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Molxona" asarining muallifi George Orwell asl ismi Eric Arthur Blair bulib u 1903-yil 25-iyunda Hindistonning Motihari shahrida ingliz oilasida dunyoga kelgan. U haqiqatni aytishdan qo'rqmaydigan yozuvchi sifatida tarixda qolgan va uning asarlari bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Orwellning ta'kidlashicha, mazkur asar 1917-yilgi Rus inqilobi va undan keyingi SSSRdagi Stalin davri hodisalariga nisbatan bir o'xshatishdir. Asardagi hayvonlar ma'lum tarixiy shaxlar ramzi sifatida namoyon buladi. Shuningdek, asardagi Napoleon, Snouboll, Qichqiroq kabi qahramonlar hukmron tabaqa illatlarini, Boksyor, Klover, Benjamin, Molli kabi laqabli hayvonlar esa ishchi tabaqa vakillari hayotini aks ettirish uchun xizmat qilgan.

Asar qahramonlari haqida: Mayor- hayvonlar jamiyati g'oyasining asoschisi, o'limi oldidan "ozod hayvonlar jamiyati" qurishni vasiyat qiladi (qiyosan, bu obrazni koomunistik mafkura asoschilari-Fredrix Engels va Karl Marksga tenglashtirish mumkin), Snouboll inqilobni tashkil qiluvchilardan va jamiyatning ilg'or fikrli rahbarlardan biri. Ammo keyinchalik Napoleon tomonidan quvib yuboriladi va uning nomi ham qora qilinadi. (qiyosan, Leon Trotskiy ushbu obrazga ancha yaqin, chunki aynan Trostkiy Stalin tomonidan o'zining

¹ Universititi Xorijiy til va adabiyot fakultiti Birinchi bosqich 24/14 – guruh talabasi

² O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tilini amaliy fanlar №3 kafedrası dotsenti v.b. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

kommunistik qarashlariga zid bo'lganligi sababli barcha lavozimlaridan chetlashtirilib, keyinchalik esa o'ldiriladi)

Napoelon-hayvonlar jamiyatining yetakchisi, keyinchalik hayvonlar dohiysi (qiyosan, Stalin va undan keyingi kommunistik davlat yetakchilari)

Benjamin- keksa dono eshshak, ko'p narsani biladi, aqilli ammo hech narsaga aralashmasdan yurishni afzal ko'radi (buni hamma narsani angelaydigan, ammo siyosatga aralashishdan o'zzini tiyadigan ziyolilar qatlamiga qiyoslash mumkin)

Bokser-o'ta mehnatkash, o'z sog'ligidan ham jamiyat muvaffaqiyatini ustun qo'yadigan oxr-oqibat qassobxonaga topshirilgan ot (mehnatkash aholi ushbu obrazga qiyos qilinishi mumkin)

Qichqiroq ma'naviyatchi cho'chiqa. Napoleonning topshiriqlarini boshqa hayvonlarga yetkazish uchun ma'sul obraz. U har qanday holatni ustamonlik bilan odamlarga singdirishga juda usta. (qiyosan, kommunistik propaganda mashinasi)

George Orwell bu asardan nima demoqchi ekanligini "Hayot maktublarda" (George Orwell : Life in Letters) asarida quyidagicha ifodalaydi:

Albatta, asarda birinchi navbatda rus inqilobini satira sifatida yoritganman. Ammo bundan ancha kengroq ma'noni anglashni nazarda tutgan edim, men "bunday inqilob (hokimiyatga ega bo'lsa, ongsiz ravishda boshqaradigan odamlar tomonidan rahbarlik qilgan fitna-qo'zg'alon) faqat rahbarlarning o'zgarishiga olib keladi" demoqchi edim. Men, "inqiloblar, faqat omma hushyor bo'lib o'z rahbarlari ishini tugatganlaridan keyin qanday qilib ularni quvib chiqarishni bilsalargina tubdan yaxshilanish bo'ladi", degan ma'noni anglatgan edim. Hikoyaning burilish nuqtasi cho'chqalar o'zlari uchun sut va olma saqlashi hodisasi bo'lishi kerak edi (masalan, Kronshtadt isyoni). Agar boshqa hayvonlar oyog'ini pastga tushirishni ma'qul ko'rsalar edi, yaxshi bo'lar edi. Agar insonlar (o'z harakatlarini oqlash uchun) men mavjud barqarorlikni (sttus quo) saqlab qolish uchun shu ishlarga qo'l uryapman desalar, aslida, ular azaldan pessimist va egosit bo'lib ulg'ayganlar va diktatura yoki erkin kapitalizmdan boshqa muqobil yo'l yo'q deb o'ylaydilar. Men aytmoqchi bo'lgan narsa shu edi: "Agar o'zining harakat qilmasang inqilob qila olmaysan; birgalikda rahbarlik qilinadigan diktatura yoki kema degan narsa yo'q." (Bir kemada ikki kapitan bo'lmaydi). "Erkin" Kapitalizm ham ayrim davlatlarda faqat muayyan sinfning maqsadlariga xizmat qiladigan jamiyat vujudga kelgan. Bundan anglashiladiki, adolatli jamiyat qurish, kapitalistik yoki kommunistik davlat qurishdan muhim. Aks holatda inqilob faqat "rahbarlarning almashinishiga olib keladi".

Fikr va mulohazalar: 1. T.S. Eliot adib va tanqidchi "Molxona" ning dastlabki qo'lyozmasini o'qib, uni nashr qilish rad etilgan noshirlardan biri edi. U asarni qiziqarli deb hisobladi, lekin unda ijtimoiy inqilobning murakkabligi yetarlicha yoritilmagani aytilgan.

2. Arthur Koestler yozuvchi "Molxona"ni Stalin boshchiligidagi totalitar tuzumining fosh etilishi deb ko'rgan va uni "davrimizning eng ta'sirchan satirik asarlaridan biri" deb atagan.

3. Isaac Deutscher tarixchi va tanqidchi ushbu asarni qattiq tanqid qilgan. U Oruelni Sovet Ittifoqiga nisbatan haddan ziyod salbiy yondashishda ayblagan va asarni "G'arb propagandasi" deb baholagan.

4. Christopher Hitchens yozuvchi va jurnalist Oreulning asarini juda yuqori baholagan va uni “totalitarizmdan ogahlantiruvchi muhim asar”² deb atagan.
 5. Ray Bradbury fantast yozuvchi “Molxona”ni erkinlik va hokimiyat o’rtasidagi kurashni chiroyli ifodalagan asar deb hisoblagan va uni “1984” romanining mukammal boshlanish nuqtasi” deb ta’riflagan.
 6. Noam Chomsky tilshunos va siyosiy tanqidchi Oruell asarlarini tahlil qilib, “Molxona”ni qimmatli satira deb hisoblagan, lekin u Oruellning siyosiy pozitsiyasini har doim ham qo’llab-quvvatlamagan.
- Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Oruell asar orqali totalitar tuzumining qanday shakllanishini, hokimiyat qanay ekspulatsiya qilinishini va insonlar qanday qilib manipulatsiya qilinishini ko’rsatadi. Haqiqiy erkinlik va adolat uchun doimiy ogohlik, bilim va tanqidiy fikrlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA

1. Bloom Harold (2009). Bloom’s Modern Critical Interpretations: Animal Farm – New Edition
2. Orwell, George. 1984. Secker and Warburg, 1949.
3. “Animal Farm: Sixty Years On”
4. “12 Things you may not know Animal Farm”
5. Eliot, T.S. Letter to George Orwell (1944).
6. Chomsky Noam. Language and Politics